

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING O'QITUVCHI FAOLIYATIGA TA'SIRI

Shukurov Vasliddin Sobirjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

vasliddinsobirovich@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20302047>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt vositalarining o'qituvchi faoliyatiga ta'siri yoritiladi. Unda darsga tayyorgarlik, o'quv materiallarini yaratish, baholash, individual yondashuv va pedagogik nazorat jarayonlarida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tezisdagi sun'iy intellekt o'qituvchini almashtiruvchi emas, balki uning faoliyatini yengillashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi yordamchi vosita sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, sun'iy intellekt, o'qituvchi faoliyati, raqamli kompetensiya, baholash, individual ta'lim, chatbot, akademik halollik.

Аннотация. В тезисе рассматривается влияние инструментов искусственного интеллекта на деятельность преподавателя в цифровой образовательной среде. Особое внимание уделяется подготовке к занятиям, созданию учебных материалов, оцениванию, индивидуальному подходу и педагогическому контролю. Искусственный интеллект рассматривается не как замена преподавателю, а как вспомогательный инструмент, повышающий эффективность его профессиональной деятельности.

Ключевые слова: цифровое образование, искусственный интеллект, деятельность преподавателя, цифровая компетентность, оценивание, индивидуальное обучение, чатбот, академическая честность.

Abstract. This thesis discusses the influence of artificial intelligence tools on teachers' work in the digital learning environment. It focuses on lesson preparation, creation of learning materials, assessment, individual approach and pedagogical control. Artificial intelligence is considered not as a replacement for teachers, but as an auxiliary tool that supports their professional activity and improves the effectiveness of teaching.

Keywords: digital education, artificial intelligence, teacher activity, digital competence, assessment, personalized learning, chatbot, academic integrity.

Bugungi raqamli ta'lim muhiti o'qituvchi faoliyatini yangicha mazmunda tashkil etishni talab qilmoqda. Avvallari o'qituvchi asosan dars mazmunini tushuntiruvchi, bilim beruvchi va nazorat qiluvchi shaxs sifatida qaralgan bo'lsa, hozirgi sharoitda u raqamli resurslarni tanlaydigan, o'quv materiallarini moslashtiradigan, talabalar faoliyatini tahlil qiladigan va ta'lim jarayonini boshqaradigan mutaxassisga aylanmoqda. Elektron platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, onlayn testlar, virtual muloqot vositalari va sun'iy intellektga asoslangan dasturlar bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda generativ sun'iy intellekt vositalari dars rejasini tayyorlash, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, baholash mezonlarini shakllantirish, talabaga mos tavsiya berish va o'qituvchi vaqtini tejashda foydali bo'lishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, bu vositalardan foydalanishda akademik halollik, ma'lumot ishonchliligi, etik me'yorlar va pedagogik nazorat masalalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt o'qituvchining eng avvalo darsga tayyorgarlik jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Har bir dars uchun reja tuzish, mavzuga mos savollar tayyorlash, amaliy topshiriqlar ishlab chiqish, testlar yaratish, taqdimot mazmunini shakllantirish va talabalar darajasiga mos tushuntirish usullarini tanlash ko'p vaqt talab qiladi. Sun'iy intellekt vositalari shu ishlarning ayrim qismini tezlashtiradi. Masalan, o'qituvchi mavzu bo'yicha savol-javoblar, muammoli vaziyatlar, keyslar, test variantlari yoki kichik amaliy topshiriqlarni qisqa vaqtda tayyorlashi mumkin. Lekin bu yerda muhim jihat bor: sun'iy intellekt bergan javob tayyor dars materialini sifatida emas, balki dastlabki yordamchi g'oya sifatida qabul qilinishi kerak.

Menimcha o'qituvchi sun'iy intellektdan foydalanganda eng avvalo o'zining pedagogik maqsadini aniq bilishi zarur. Chunki sun'iy intellekt savolga javob beradi, lekin darsning tarbiyaviy, metodik va psixologik tomonlarini to'liq his qila olmaydi. Masalan, bir guruhdagi talabalar mavzuni tez tushunishi mumkin, boshqa guruh esa ko'proq sodda misol, ko'rgazmali tushuntirish yoki amaliy mashq talab qiladi. Bunday holatda sun'iy intellekt umumiy variant beradi, o'qituvchi esa uni auditoriya sharoitiga moslashtiradi. Demak, sun'iy intellekt o'qituvchining o'rnini bosmaydi, balki uning ijodiy va metodik ishini yengillashtiradi.

Ta'lim jarayonida sun'iy intellektning yana bir muhim imkoniyati o'quv materiallarini yaratish bilan bog'liq. Bugungi talaba faqat matnli ma'ruzani emas, balki jadval, sxema, infografika, test, interaktiv savol-javob, qisqa izoh, real hayotiy misol va amaliy vaziyatlar bilan boyitilgan materiallarni yaxshi qabul qiladi. Sun'iy intellekt o'qituvchiga bunday materiallarni tezroq tayyorlashda yordam beradi. Masalan, bir mavzuni sodda tilda tushuntirish, murakkab tushunchaga misol keltirish, mavzuga oid topshiriqlarni turli darajada tuzish yoki talabalarning mustaqil ishlashi uchun yo'riqnoma yaratish mumkin.

Sun'iy intellekt o'qituvchining baholash faoliyatiga ham bevosita ta'sir qiladi. Baholash o'qituvchi ishining eng mas'uliyatli qismlaridan biridir. Test tuzish, yozma javoblarni tekshirish, amaliy topshiriqlar uchun mezon ishlab chiqish, talabalar xatolarini aniqlash va umumiy natijalarni tahlil qilish ancha vaqt talab qiladi. Sun'iy intellekt bu jarayonda test savollari, baholash rubrikalari, javob mezonlari va fikr-mulohaza namunalari tayyorlashda yordam beradi. Biroq baholashning yakuniy qarori o'qituvchi tomonidan qabul qilinishi kerak. Chunki talabaniq bilimni faqat tayyor javob asosida emas, balki uning fikrlashi, izohi, mustaqil yondashuvi va mavzuni qanday tushunganiga qarab baholash lozim.

Ayrim holatlarda sun'iy intellekt baholashda qulaylik tug'dirsa-da, haddan tashqari ishonish noto'g'ri natijalarga olib kelishi mumkin. Masalan, esse yoki yozma topshiriqni baholashda sun'iy intellekt matnning grammatik to'g'riligiga ko'proq e'tibor berib, undagi mustaqil fikr, hayotiy kuzatuv yoki ijodiy yondashuvni yetarlicha baholamasligi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi sun'iy intellektdan yordamchi sifatida foydalanishi, lekin pedagogik nazoratni o'z qo'lida saqlashi kerak.

Sun'iy intellekt individual ta'limni tashkil etishda ham foydali vosita bo'lishi mumkin. Har bir talabaniq bilim darajasi, qiziqishi, mavzuni qabul qilish tezligi va mustaqil ishlash ko'nikmasi har xil. Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt talabaga mos tushuntirish, qo'shimcha mashq, qisqa izoh yoki mavzuga oid tavsiya berishi mumkin. Bu o'qituvchi uchun ham qulay, chunki u barcha talabaga bir xil yondashuv bilan cheklanib qolmaydi. Ayniqsa, katta guruhlarda har bir talaba bilan alohida ishlash qiyin bo'lgan holatlarda sun'iy intellekt o'qituvchiga yordamchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, individual ta'limni faqat sun'iy intellektga topshirib qo'yish mumkin emas. Talabaniq kayfiyati, darsdagi faolligi, savol berish uslubi, muloqotdagi ishtiroki va o'ziga bo'lgan

ishonchi kabi jihatlar o'qituvchi kuzatuvchi orqali aniqlanadi. Sun'iy intellekt ma'lumotni qayta ishlaydi, lekin talabaning ichki holatini insondek sezmaydi. Shu sababli raqamli ta'limda ham o'qituvchining insoniy munosabati, pedagogik sezgirligi va tarbiyaviy ta'siri o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Sun'iy intellekt vositalari o'qituvchining raqamli kompetensiyasini ham oshirishni talab qiladi. Oddiy foydalanuvchi sifatida sun'iy intellektga savol berish boshqa, undan pedagogik maqsadda foydalanish esa boshqa masala. O'qituvchi sun'iy intellektga aniq topshiriq berishi, olingan natijani tekshirishi, noto'g'ri yoki yuzaki ma'lumotlarni ajrata olishi, kerak bo'lsa, javobni qayta ishlashi kerak. Bu esa o'qituvchidan tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati va raqamli savodxonlikni talab qiladi.

Raqamli ta'lim muhitida akademik halollik masalasi ham dolzarb bo'lib bormoqda. Talabalar sun'iy intellekt yordamida mustaqil ish, esse, referat, taqdimot yoki dasturlash topshiriqlarini tayyorlashi mumkin. Bu holat o'qituvchi oldiga yangi vazifa qo'yadi. Endi o'qituvchi faqat “foydalanish mumkin” yoki “foydalanish mumkin emas” degan yondashuv bilan cheklanmasligi kerak. Talabalarga sun'iy intellektidan to'g'ri foydalanish, tayyor javobni ko'chirib bermaslik, manbalarni tekshirish, shaxsiy fikrni saqlash va yakuniy natijaga mas'uliyat bilan yondashish o'rgatilishi zarur.

Demak sun'iy intellekt davrida o'qituvchi talabaga tayyor javobni emas, fikrlash yo'lini o'rgatishi yanada muhimlashadi. Agar talaba sun'iy intellektidan faqat tayyor matn olish uchun foydalansa, unda mustaqil fikrlash zaiflashadi. Agar u sun'iy intellektidan savol tuzish, fikrini tekshirish, mavzuni chuqurroq tushunish va xatolarini aniqlash uchun foydalansa, bu vosita ta'lim samaradorligini oshiradi. Demak, muammo sun'iy intellektning o'zida emas, undan qanday foydalanish madaniyatidadir.

Sun'iy intellekt o'qituvchining ijodiy faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'qituvchi bir mavzu uchun turli metodik yondashuvlar, muammoli savollar, amaliy mashqlar, rolli o'yinlar, keyslar, testlar va baholash topshiriqlarini shakllantirishi mumkin. Bu ayniqsa amaliy fanlarda juda foydali. Informatika, iqtisodiyot, statistika, menejment yoki axborot tizimlari kabi fanlarda sun'iy intellekt real hayotga yaqin vaziyatlar yaratishda yordam beradi. Natijada dars mazmuni quruq nazariyadan amaliy muhokamaga o'tadi.

Biroq sun'iy intellektning ayrim xavfli tomonlarini ham unutmaslik kerak. Birinchidan, u doimo to'g'ri ma'lumot bermaydi. Ikkinchidan, ayrim javoblar umumiy va yuzaki bo'lishi mumkin. Uchinchidan, o'qituvchi ham, talaba ham tayyor javobga o'rganib qolishi ehtimoli bor. To'rtinchidan, shaxsiy ma'lumotlarni sun'iy intellekt platformalariga kiritish axborot xavfsizligi nuqtayi nazaridan to'g'ri emas. Beshinchidan, haddan tashqari avtomatlashtirish o'qituvchi va talaba o'rtasidagi jonli muloqotni kamaytirishi mumkin. Shuning uchun sun'iy intellektidan foydalanishda tezlik va qulaylik bilan birga mas'uliyat va nazorat ham bo'lishi shart.

O'qituvchi faoliyatida sun'iy intellektidan samarali foydalanish uchun bir necha jihat muhim. Avvalo, o'qituvchi o'z fanining mazmunini chuqur bilishi kerak. Chunki fan mazmunini bilmagan o'qituvchi sun'iy intellekt bergan javobning to'g'ri yoki noto'g'riligini baholay olmaydi. Ikkinchidan, o'qituvchi metodik yondashuvga ega bo'lishi zarur. Chunki yaxshi ma'lumotni ham noto'g'ri usulda berish ta'lim samarasini pasaytiradi. Uchinchidan, o'qituvchi raqamli vositalarni tanlay olishi kerak. Har bir platforma yoki dastur ta'lim maqsadiga mos kelavermaydi. To'rtinchidan, o'qituvchi talabalarni sun'iy intellektidan madaniyatli foydalanishga o'rgatishi zarur.

Sun'iy intellektning o'qituvchi faoliyatiga ta'siri faqat texnik qulaylik bilan cheklanmaydi. U o'qituvchining kasbiy rolini ham o'zgartirmoqda. Endi o'qituvchi ma'lumot beruvchi yagona manba

emas. Talaba ham turli raqamli vositalar orqali ma’lumot olishi mumkin. Lekin o’qituvchining vazifasi shu ma’lumotlarni tartibga solish, to’g’ri yo’naltirish, tanqidiy tahlil qilishga o’rgatish va bilimni amaliy ko’nikmaga aylantirishdan iborat bo’lib qoladi. Shu ma’noda, sun’iy intellekt o’qituvchining rolini kamaytirmaydi, balki uni yanada murakkab va mas’uliyatli qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt vositalari o’qituvchi faoliyatining turli yo’nalishlariga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. U darsga tayyorgarlik, o’quv materiallarini yaratish, baholash, individual ta’limni tashkil etish, talabalar bilan ishlash va metodik ijodkorlikni rivojlantirishda foydali yordamchi bo’la oladi. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanish o’qituvchidan yuqori mas’uliyat, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik va pedagogik nazoratni talab qiladi. Sun’iy intellektni o’qituvchining o’rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki uning kasbiy faoliyatini qo’llab-quvvatlovchi yordamchi sifatida tushunish to’g’riroqdir. Ta’lim sifatini oshirishda asosiy omil baribir o’qituvchining bilimi, tajribasi, metodik mahorati va talaba bilan insoniy muloqotidir. Sun’iy intellekt esa shu jarayonni tezlashtirishi, boyitishi va qulaylashtirishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Pedagogik faoliyatda sun’iy intellektga asoslangan chatbotlardan foydalanish. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2025, №6.
2. Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: dolzarbligi, ahamiyati. *Inter Education & Global Study*, 2025.
3. Влияние искусственного интеллекта на роль преподавателя при трансформации педагогических компетенций в условиях цифровизации. *CyberLeninka*, 2025.
4. The impact of generative AI on higher education learning and teaching: A study of educators’ perspectives. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, 2024.
5. Generative Artificial Intelligence in Higher Education from Prospective Teachers’ Perspectives: A Qualitative Study on Support Opportunities and Usage Challenges. *Educational Process: International Journal*, 2026.
6. Generative AI in Teacher Education: Educators’ perceptions of transformative potentials. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, 2025.